

TURKISTON O'LKASIDA PAXTACHILIK SIYOSATI

I.M. Xaydarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori, tarix fanlari doktori (DSc).

Safarov Elbek

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

“Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

E-mail: izzatillakhon@gmail.com, elbeksafarov090@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20096171>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Turkistonda (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshi) olib borgan paxtachilik siyosati, uning tarixiy sabablari hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik oqibatlari yoritilgan. Maqolada Amerika fuqarolar urushidan keyin paxta xomashyosiga bo‘lgan talabning oshishi, mahalliy navlar o‘rniga Amerika navlarini kiritish, irrigatsiya tizimini kengaytirish, soliq imtiyozlari, temir yo‘llar qurilishi va bank tizimi orqali paxtachilikni rag‘batlantirish choralari tahlil qilingan. Shuningdek, paxta monokulturasi natijasida an‘anaviy qishloq xo‘jaligining siqilishi, dehqonlarning moliyaviy qaramligi va mustamlakachilik siyosatining umumiy natijalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston, paxtachilik siyosati, mustamlakachilik, Amerika paxta navi, irrigatsiya, monokultura, Farg‘ona vodiysi, temir yo‘llar, iqtisodiy qaramlik.

COTTON POLICY IN THE TURKESTAN REGION

Annotation. This article examines the cotton policy of the Russian Empire in Turkestan (second half of the 19th century – early 20th century), its historical causes, and its economic, social, and ecological consequences. The study analyzes the increased demand for raw cotton following the American Civil War, the introduction of American cotton varieties instead of local ones, the expansion of irrigation systems, tax incentives, railway construction, and the role of the banking system in promoting cotton cultivation. It also discusses the consequences of cotton monoculture, including the decline of traditional agriculture, the financial dependence of peasants, and the overall results of colonial policy.

Keywords: Russian Empire, Turkestan, cotton policy, colonialism, American cotton variety, irrigation, monoculture, Fergana Valley, railways, economic dependence.

ПОЛИТИКА ХЛОПКОВОДСТВА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

Аннотация. В данной статье освещается хлопковая политика Российской империи в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX века), её исторические причины и экономические, социальные и экологические последствия. В работе анализируются рост спроса на хлопковое сырьё после Гражданской войны в США, внедрение американских сортов хлопка вместо местных, расширение ирригационных систем, налоговые льготы, строительство железных дорог и роль банковской системы в стимулировании хлопководства. Также рассмотрены последствия хлопковой монокультуры, такие как вытеснение традиционного сельского хозяйства, финансовая зависимость крестьян и общие итоги колониальной политики.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестан, хлопковая политика, колониализм, американский сорт хлопка, ирригация, монокультура, Ферганская долина, железные дороги, экономическая зависимость.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgach, Turkiston o'lkasini o'zining iqtisodiy va strategik manfaatlariga xizmat qiladigan muhim mustamlaka hududiga aylantirdi. Imperiyaning tez rivojlanayotgan to'qimachilik sanoati paxta xomashyosiga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi fuqarolar urushi (1861-1865-yillar) natijasida AQShdan paxta importi qiyinlashgani Rossiya hukumatini ichki manbalarni faol rivojlantirishga undadi. Turkistonning issiq iqlimi, sug'oriladigan yerlari va boy tajribasi paxtachilikni kengaytirish uchun juda qulay sharoit yaratdi. Natijada, Rossiya ma'muriyati bu hududni imperiya to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyo bazasiga aylantirishga qaratilgan aniq siyosatni amalga oshirdi.

Rossiya imperiyasining paxtachilik siyosati nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy-siyosiy va ekologik oqibatlariga olib keldi. Paxta yetishtirish maydonlarining kengayishi an'anaviy g'allachilik va chorvachilikni siqib chiqardi, suv resurslarini qayta taqsimladi, yer-suv munosabatlarini o'zgartirdi va mahalliy dehqonlarning moliyaviy qaramligini kuchaytirdi.

Ushbu siyosat mustamlakachilikning klassik namunasi sifatida Turkistonni xomashyo yetkazib beruvchi va Rossiya sanoat mahsulotlari bozori sifatida saqlab qoldi. Paxta monokulturasini iqtisodiyotni bir tomonlama rivojlantirdi, oziq-ovqat xavfsizligini pasaytirdi va mahalliy aholi hayot tarzini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga, bu jarayon transport infratuzilmasi, bank tizimi va savdo aloqalarining rivojlanishiga turtki berdi.

Maqolaning maqsadi Rossiya imperiyasining Turkistondagi paxtachilik siyosatining tarixiy shart-sharoitlari, amalga oshirish mexanizmlari va ko'p qirrali oqibatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida mustamlakachilik siyosatining mohiyati ochib beriladi.

Adabiyotlar sharhi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi paxtachilik siyosatini o'rganishda bir qator muhim ilmiy va tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ular mazkur masalaning turli jihatlarini ochib beradi. Ushbu tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar o'lkani xomashyo bazasiga aylantirish jarayoni, agrar siyosatning mohiyati hamda uning mahalliy aholiga ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi.

Shamsutdinov R. va Karimov Sh.ning "Vatan tarixi" (II qism, 2010) o'quv qo'llanmasida Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olgandan keyingi iqtisodiy siyosati umumiy tarixiy jarayonlar doirasida yoritilgan. Mualliflar imperiyaning Turkistonni paxta xomashyosi bazasiga aylantirib qo'yishi, o'lkada paxtachilikning kengaytirilishi, sug'oriladigan yerlarning ko'paytirilishi hamda bu jarayonning mustamlakachilik manfaatlarini bilan uzviy bog'liqligini asoslab beradi. Ushbu manba mavzuning nazariy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Usmonov Q., Sodiqov M. Burxonova S. Tomonidan yaratilgan "O'zbekiston tarixi" (2006) darsligida esa Rossiya imperiyasining Turkistondagi iqtisodiy siyosati, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish orqali o'lkani xomashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirish jarayoni batafsil bayon qilingan. Asarda paxta ekin maydonlarining keskin kengayishi, boshqa xususan qishloq xo'jaligi ekinlari yerlarining paxta sababli siqib chiqarilishi va iqtisodiy, faqat foydali tomoni haqida ish ko'rib yerlarning juda katta qismi paxta uchun biryozlamalik bilan ajratilishi kabi muhim masalalar yoritilgan.

Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. Usmonov Q.ning "Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachilik davrida" (2000) kitobida esa Podsho imperiyasi mustamlakachilik siyosatini

chuqur tahlil qilgan maxsus tadqiqot hisoblanadi. Ushbu kitobda Rossiya imperiyasining agrar siyosati, paxtachilikka majburiy ixtisoslashtirish, mahalliy dehqonlarning iqtisodiy qaramlikka tushib qolishi hamda o'lkaning sanoat markazlariga xomashyo yetkazib beruvchi paxta hududiga aylanishi ilmiy asosda ochib berilgan.

Bundan tashqari, 1917-yil 15-avgustda chop etilgan “Хуррият” gazetasi (27-son) materiallari davrning muhim birlamchi va aniq manbasi sifatida alohida ahamiyat ega hisoblanadi. Unda Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, paxtachilik siyosatining oqibatlari hamda mahalliy aholining mustamlakachilikka nisbatan munosabati yaqqol aks ettirilgan. Bu esa mavzuni o'sha davrdagi zamondoshlar nigohi orqali baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbi yuqoridagi manbalar Rossiya imperiyasining Turkistondagi paxtachilik siyosatini umumiy tarzda o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali o'lkaning iqtisodiy jihatdan biryoqlama rivojlanishi, xomashyo yetishtirishga majburan ixtisoslashtirilishi va bu siyosatning salbiy oqibatlarini chuqur tahlil qilish mumkin.

Natijalar. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin bu hududni o'zining to'qimachilik sanoati uchun strategik xomashyo bazasiga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi. XIX asr o'rtalarida Rossiya paxta xomashyosining asosiy qismini Amerikadan import qilardi. Biroq, ba'zi sabablar natijasida yetkazib berish keskin qisqardi va narxlar keskin oshdi. Bu holat Rossiya hukumatini ichki resurslarni faol ishga solishga undadi. Turkistonning iqlimiy sharoitlari, sug'oriladigan yerlari va mahalliy dehqonlarning tajribasi paxtachilikni rivojlantirish uchun mustamlakachilarga ideal muhit bo'lib ko'rindi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko'zlangan bosh maqsadi va asosiy yo'nalishlarini Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V. Krivoshein shunday ifodalagan: “Bu markaziy masalada uch ko'rinish mavjud. Ana shu 3 asosiy masaladan biri yarqirab turgan yozuv “Paxta” degan edi. U o'z fikrlarini aniq dalillashga urinib, masalaning dastlab iqtisodiy tomoniga urg'u beradi. “Bizning ichki bozorimizga, so'nggi 20 yil ichida Amerika paxtasi uchun faqat boj tariqasida 700 million rubl to'lashga to'g'ri keldi. 1900 yildan esa yiliga 40 million rubldan to'lab kelmoqdamiz”¹.

Paxta yakka hokimligi Turkiston sanoatiga tamoman mustamlaka tusini berib, uni metropoliya burjuaziyasiga raqobatchi emas, balki unga xizmat ko'rsatuvchi sohaga aylantirgan edi. Rus burjuaziyasi va shakllanib borayotgan Turkiston burjuaziyasi o'rtasidagi munosabatda ham shu holat o'z aksini topdi.

Markazdagi kapitalistlar, chet el firmalari bilan hamkorlikda Turkiston boyliklarini o'zlashtirish ishida mahalliy burjuaziyani o'ziga vositachi qilib olgan edi. Rus burjuaziyasi Turkiston sanoati, qishloq xo'jaligi va yer osti boyliklarini o'zlashtirish ishiga nisbatan, kapitalistik munosabatlardan kelib chiqqan holda siyosat o'tkazar va ana shu masalada dvoryan-pomeshchiklar bilan to'qnashar edi. Rus podshosining saroyi, Davlat Kengashi va Ministrlar Qo'mitasida asosiy o'rinlarni egallagan dvoryan pomeshchiklar esa Turkistonga nisbatan harbiy-feodal siyosat yuritib, ochiqdan-ochiq uning boyliklarini talash, yer-suvlarini tortib olish tarafdorlari edi. Har ikki sinf manfaatlarini muvofiqlashtirishga uringan podsholik shuning uchun ham mustamlakalarda “harbiy-feodal imperializm” siyosatini o'tkazib kelardi².

¹ Shamsutdinov R., Karimov Sh. - Vatan tarixi II qism. Toshkent: Sharq, 2010. – B. 202.

² Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 233.

General-gubernator Konstantin Petrovich fon Kaufman (1867-1882) davrida paxtachilikni rag'batlantirish siyosati tizimli tus oldi. Mahalliy navlar hosildorligi past bo'lgani uchun 1880-yillardan boshlab Amerika navlari, xususan "Upland" navi kiritildi. Bu nav mahalliy sharoitga moslashtirilib, hosildorlikni bir necha baravar oshirdi. Podsho hukumati paxta ekiladigan yerlar uchun yer solig'ini kamaytirdi yoki imtiyozlar berdi. Natijada, paxta yetishtirish maydonlari tez kengaydi. Ayniqsa suv bilan yaxshi taminlangan Farg'ona vodiysi bu jarayonda yetakchi o'rinni egalladi.

Irrigatsiya (sug'orish) tizimini kengaytirish siyosatning muhim qismi edi. 1911 - yilda Sirdaryo magistral kanali qurilishi boshlandi. Garchi loyihalar to'liq amalga oshmagan bo'lsa-da, mahalliy tashabbuslar va qisman davlat yordami hisobiga sug'oriladigan yerlar ko'paydi. Biroq, bu ishlar asosan paxta manfaati uchun yo'naltirilgan bo'lib, an'anaviy g'alachilik va chorvachilik uchun suv resurslari yetishmasligiga olib keldi. Paxta monokulturasi (yakkahokimligi) shakllana boshladi.

Paxtachilik siyosati moliyaviy va transport mexanizmlari bilan mustahkamlandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda Rossiya Davlat banki va tijorat banklarining filiallari faol ish boshladi. 1914-yilga kelib ularning soni 40 taga yetdi. Banklarning asosiy faoliyati paxta operatsiyalari – oldindan qarz berish, sotib olish va eksport bilan bog'liq edi. Mahalliy dehqonlar ko'pincha bahorda paxta ekish uchun qarz olib, kuzda hosilni past narxda sotishga majbur bo'lardi. Bu qilingan ishlar tufayli dehqonlarni moliyaviy qaramlikka olib keldi.

Mazkur siyosat o'lka tabiiy boyliklarini markazga olib chiqish, uni rus sanoati uchun xomashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirish hamda tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga transformatsiya qilish ko'zda tutilgan edi. Bunday mustamlakachilik yo'nalishi imperiya tarkibidagi dvoryan-pomeshik tabaqasi va shakllanib borayotgan burjuaziya manfaatlariga to'la mos kelar edi. Natijada ular Turkistonni iqtisodiy ekspluatatsiya qilish jarayonida faol ishtirok etib, mahalliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga intildilar. Xususan, Rossiya to'qimachilik sanoati ehtiyojlari uchun Amerika Qo'shma Shtatlaridan olib kelinadigan paxta katta moliyaviy xarajatlarni talab qilardi. Har yili bu import uchun taxminan 30–40 million so'm miqdorida boj to'lovlari amalga oshirilgan. Shu sababli imperiya rahbariyati Turkistonni arzon va yaqin xomashyo manbai sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Natijada o'lka paxta yetishtirishga ixtisoslashgan agrar hududga aylantirilib, bu Rossiyaning agrar siyosatida asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi³.

Paxtachilikning jadal rivoji quyidagi raqamlarda yaqqol namoyon bo'ldi. 1880 - yillarda paxta yetishtirish cheklangan bo'lsa, 1890 - yillarga kelib Farg'ona vodiysi, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida katta maydonlar egallandi. 1915-yilda paxta maydonlari 524 ming desyatinaga yetib, 14 million pud (taxminan 230 ming tonna) hosil olindi. Bu miqdor Rossiya to'qimachilik sanoatining ehtiyojlarining katta qismini qopladi. Farg'ona vodiysida paxta maydonlari umumiy ekin maydonining 40-50 foiz gacha yetdi.

Bu o'sish nafaqat davlat choralari, balki mahalliy dehqonlarning tashabbusi va bozor talabi hisobiga ham sodir bo'ldi. Paxta narxining yuqoriligi (1860-yillarda bir pud paxta 4-5 rubldan 20-23 rublgacha oshgani) dehqonlarni paxta yetishtirishga undadi. Ammo bu jarayon bir tomonlama edi: g'alla va chorva mahsulotlari ishlab chiqarish qisqardi, narxlar oshdi va importga qaramlik kuchaydi.

³ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006. B- 231.

Imperiyaning Turkiston xom ashyosidan oladigan foydasining aniq miqdorini hech kim bilmagan va u faqat metropoliya burjuaziyasigagina ma'lum edi. Rossiya to'qimachilik sanoati mahsulotlari qiymati 1900 - yildan 1913 - yilga qadar 150 foiz oshganidan kelgan foyda ham shu rus kapitalistlarining cho'ntagiga tushgan va uning hisobini ham hech kim bilmaydi.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o'z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi. O'lka Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. Bu haqda Turkiston jadidlari yetakchilaridan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaye'v 1917 - yil iyul oyida Qozonda o'tgan 2-Butunrossiya musulmonlar qurultoyida shunday degan edi: "Shu kungacha Turkiston rus kapitalistlari uchun govmish sigir bo'lib kelmoqda. Bugunda Turkiston Rossiyaga paxta yetkazuvchidir. Hanuzgacha to'xtamayotgan urush tufayli paxtaga ehtiyoj tobora ortib bormoqda, chunki u porox tayyorlashda kerakdir. Agar urushgacha bo'lgan davrda Amerika paxtasining 1 pud Rossiyaga 18 so'mdan tushgan bo'lsa, hozirda barcha mollarga narx-navo 3 barobar oshganda, 1 pud Turkiston paxtasi Rossiya tomonidan 7 so'mdan 10 so'mgacha sotib olinmoqda, holbuki, 1 pudning bahosi hozirda 20 so'mni tashkil qilishi lozim. Demak, Turkiston paxtakorlari har pud paxtadan 10 - 12 so'm zarar ko'rishmoqda. Bundan shunday xulosa chiqadiki, agar Turkistonda yiliga 10 - 12 million pud paxta yetishtirilsa, u holda bizning paxtakorlar tomonidan ishlab topilgan 100 million so'm har yili rus kapitalistlari cho'ntagiga tushmoqda" degan edi⁴.

XX asr boshlarida paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, don 37 foiz, boshqa ekinlar esa 1,2 foizni tashkil qilgan. Paxtachilik imperiyaning chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini tejashda yordam bergani ham to'qimachilik, gazlama sanoati gurkirab o'sishiga turtki berdi.

Paxtachilik siyosati mahalliy jamiyatga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Dehqonlarning ko'pchiligi paxta yetishtirish uchun yerlarini ijaraga berish yoki o'zlari majburiy ravishda shu yo'nalishga o'tdilar. Natijada, yersiz va kam yerga ega dehqonlar soni ko'paydi. Rossiyalik ko'chmanchilar joylashtirildi, lekin ular asosan g'allachilik bilan shug'ullanishdi. Paxta yetishtiruvchi mahalliy aholi esa moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldi.

Iqtisodiy jihatdan foydali bo'lsa-da, bu siyosat oziq-ovqat xavfsizligini pasaytirdi. Farg'ona vodiysida g'alla va chorva mahsulotlari chetdan keltirila boshlandi, narxlar oshdi. Dehqonlar paxta narxlarining o'zgaruvchanligidan aziyat chekdi. Ijtimoiy keskinlik kuchayib, keyinchalik 1916-yilgi qo'zg'olonning sabablaridan biriga aylandi. Ushbu siyosatning mohiyati shundaki, Turkiston xomashyo yetkazib beruvchi va Rossiya esa sanoat mahsulotlari bozori bo'lib qoldi. Mahalliy sanoat rivoji cheklanib qoldi.

Umuman olganda, Rossiya imperiyasining paxtachilik siyosati mustamlakachilikning klassik namunasi bo'ldi. U imperiya sanoatini xomashyo bilan ta'minladi, infratuzilmani rivojlantirdi, lekin mahalliy iqtisodiyotni bir tomonlama rivojlantirdi va qaramlikka olib keldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasining Turkistondagi paxtachilik siyosati aniq maqsadga - o'lkani metropoliya sanoati uchun arzon xom ashyo bazasiga aylantirishga qaratilgan edi. Bu siyosat natijasida Turkiston qisqa muddat ichida Rossiya to'qimachilik sanoati uchun strategik ahamiyatga ega hududga aylantirildi.

Paxtachilikning keskin kengayishi o'lka iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanishiga olib keldi, paxta maydonlari bir necha barobar oshdi, paxta tozalash zavodlari ko'paydi, ammo

⁴ "Хуррият" газетаси, 1917 йил 15 август. 27 – сон.

boshqa tarmoqlar, ayniqsa oziq-ovqat yetishtirish orqada qoldi. Shu bilan birga, paxta narxining sun'iy ravishda past saqlanishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshirilishi mahalliy dehqonlarning og'ir iqtisodiy ahvolga tushishiga sabab bo'ldi. Natijada ishlab chiqarilgan boyliklar asosan rus kapitalistlari qo'liga o'tdi.

Bundan tashqari, Turkiston sanoati mustaqil rivojlanish imkonidan mahrum etilib, faqat xom ashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida shakllantirildi. Mahalliy burjuaziya esa ko'proq vositachi rolida faoliyat yuritdi. Imperiya doirasida olib borilgan harbiy-feodal va kapitalistik manfaatlar uyg'unlashgan siyosat o'lkaning tabiiy boyliklarini talash va iqtisodiy qaramlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, Rossiya imperiyasining Turkistondagi paxtachilik siyosati mustamlakachilik xarakteriga ega bo'lib, u o'lkaning tabiiy va iqtisodiy resurslarini bir tomonlama ekspluatatsiya qilishga asoslangan edi. Bu siyosat Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uni uzoq muddat davomida qaram hudud sifatida shakllantirdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. – Vatan tarixi II qism. Toshkent: Sharq, 2010.
2. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
3. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.
4. “Хуррият” газетаси, 1917 йил 15 август. 27 – сон.